



SPORT BUKMEKERLIK FAOLIYATINI LITSENZIYALASH: DAVLAT NAZORATI VA BOZOR ERKINLIGI MUVOZANATI

Olimov Ikromxon Rustam o'g'li

Annotatsiya

Global sport bukmekerlik bozorining jadal kengayishi hukumatlar uchun jiddiy regulatsiya qilish muammolarini keltirib chiqarmoqda. Bukmekerlik faoliyatini legallashtirish katta soliq tushumlari va iqtisodiy imkoniyatlar yaratishi mumkin bo'lsa-da, u iste'molchilar himoyasi, moliyaviy jinoyatchilik, tavakkalchilikka asoslangan o'yinlariga qaramlik va sport musobaqalarining halolligi bilan bog'liq jiddiy xavotirlarni ham keltirib chiqaradi. Shu sababli, ko'plab yurisdiksiyalar bukmekerlik operatorlarini nazorat qilish va huquqiy standartlarga rioya etilishini ta'minlashning asosiy tartibga solish vositasi sifatida litsenziyalash tizimlarini joriy etdilar. Biroq, litsenziyalash tartibini joriy etish murakkab dilemmani yuzaga chiqardi. Haddan tashqari davlat nazorati bozordagi raqobatga to'sqinlik qilishi va noqonuniy yoki offshor bukmekerlik platformalarining o'sishini rag'batlantirishi mumkin, yetarli darajada qat'iy bo'lmagan tartibga solish tizimi esa iste'molchilar va sport tashkilotlarini jiddiy xavf-xatarlarga uchrashiga sabab bo'lishi mumkin. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonning ehtiyotkor litsenziyalash yondashuvi ijtimoiy xavflarni minimallashtirishga qaratilgan bo'lsa-da, uzoq muddatda bozorning legallashtirilmagan segmenti saqlanib qolish xavfini yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli maqolada muvozanatli regulyatsiya, institutsional mustaqillik va texnologik monitoringga asoslangan balanslashgan tartibga solish modeli taklif etiladi.

Kalit so'zlar: sport bukmekerligi, litsenziyalash, davlat nazorati.



So‘nggi yillarda sport bukmekerlik bozori global miqyosda jadal rivojlanmoqda. Raqamli texnologiyalar va onlayn platformalarning keng tarqalishi ushbu sohaning iqtisodiy ahamiyatini yanada oshirdi. Shu bilan birga, bukmekerlik industriyasini o‘sib borishi davlatlar oldiga yangi huquqiy va ijtimoiy muammolarni qo‘ymoqda. Sport bukmekerlik faoliyati huquqiy jihatdan tavakkalchilikka asoslangan o‘yinlarining bir turi sifatida qaraladi va davlat tomonidan tartibga solinishi zarur bo‘lgan xavfli iqtisodiy faoliyat hisoblanadi. Bukmekerlik faoliyati alohida xususiyatlarga ega ekani, ya’ni risk va spekulyativ elementlar asosida ishlashi uni tartibga solishda murakkab va ko‘p qirrali yondashuvni talab qiladi. Zamonaviy davlatlar bukmekerlik faoliyatini asosan litsenziyalash orqali tartibga soladi. Litsenziyalash davlatga bozorda ishtirok etuvchi subyektlarni nazorat qilish, moliyaviy shaffoflikni ta’minlash va iste’molchilarni himoya qilish imkonini beradi.

O‘zbekiston misolida mazkur masalaga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, uzoq vaqt davomida bukmekerlik faoliyati taqiqlangan bo‘lsa-da, fuqarolar xorijiy platformalardan faol foydalanishda davom etmoqda. Natijada mamlakatdan katta miqdorda kapital chiqib ketmoqda, hisob-kitoblarga ko‘ra, mamlakatdan mablag‘larning chiqib ketishi yiliga 350 mln dollardan 1 mlrd dollargachani tashkil qilmoqda.¹ Shu sababli hukumat tomonidan 2025-yildan boshlab bukmekerlik faoliyatini qonuniylashtirish va litsenziyalash orqali tartibga solish yo‘li tanlandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-apreldagi “Lotereyalar va tavakkalchilikka asoslangan o‘yinlarni tashkil etish va o‘tkazishni tartibga solishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-68-son farmoni bilan 2025-yil 1-yanvardan internet tarmog‘ida tavakkalchilikka asoslangan o‘yinlarni tashkil etish faoliyatini va bukmekerlik faoliyatini amalga oshirishga ruxsat etildi va lotereya, internet tarmog‘ida o‘yinlar va bukmekerlikni tashkil etish faoliyatlari qonunchilikka muvofiq Istiqbolli loyihalar milliy agentligi (vakolatli organ)

¹ Gazeta.uz, ‘O‘zbekistonda bukmekerlikni qonuniylashtirish masalasi’ <https://www.gazeta.uz/uz/2024/04/27/ilma/>



tomonidan beriladigan litsenziyalar asosida amalga oshirilishi belgilandi.² Biroq, oradan 1 yildan ko‘proq muddat o‘tganiga qaramasdan O‘zbekistonda hozirgi kunga (2026-yil 18-martga) qadar lotereyalar, tavakkalchilik elementlariga ega onlayn o‘yinlar va bukmekerlik kontoralari faoliyatini tashkil etish uchun litsenziyalar berilmagan.³ Bu kechikish sababi sifatida noqonuniy faoliyatning oldini olish hamda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qimor o‘yinlariga jalb etilishidan himoya qilish choralari ko‘rilgani ta’kidlandi. Shuningdek, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi (ILMA) vakiliga ko‘ra, kompaniyalar litsenziya olishga qiziqish bildirmoqda, biroq hujjatlarni tayyorlash va belgilangan talablarga javob berish uchun vaqt talab etilmoqda.⁴ Umuman olganda, mazkur holat sohada qat’iy nazorat mexanizmlari joriy etilayotgani bilan izohlanmoqda. Ushbu choralar aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini himoya qilish hamda shubhali kompaniyalarning bozorga kirib kelishining oldini olishga qaratilgan.⁵

Qiyosiy huquqiy tahlil nuqtai nazaridan O‘zbekiston bilan bir mintaqada joylashgan Qozog‘iston Respublikasi tajribasi esa ushbu muammoning boshqa tomoni qonuniylashtirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishni ko‘rsatadi. Masalan, 2023-yilda mamlakatdagi tavakkalchilikka asoslangan o‘yinlar va bukmekerlik faoliyati daromadi 2.85 milliard dollarga yetgan va bu ko‘rsatkich bir yil ichida 20% dan ko‘proqqa o‘sgan.⁶ Bu esa bukmekerlik bozorining iqtisodiy salohiyati yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Qozog‘istonda 2023-yilda tavakkalchilikka asoslangan o‘yinlar faoliyatidan olinadigan soliqlarning umumiy miqdori

² Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.04.2024-y., 06/24/68/0302-son

³ O‘zbekistonda hozircha onlayn qimor o‘yinlari va bukmekerlik faoliyati uchun litsenziyalar berilmagan — ILMA <https://uznews.uz/ru/news/108303>

⁴ O‘zbekistonda hozircha onlayn qimor o‘yinlari va bukmekerlik faoliyati uchun litsenziyalar berilmagan — ILMA <https://uznews.uz/ru/news/108303>

⁵ O‘zbekistonda bukmekerlikni tashkil etish bo‘yicha birorta ham litsenziya berilmadi <https://daryo.uz/2026/03/20/ozbekistonda-bukmekerlikni-tashkil-etish-boyicha-birorta-ham-litsenziya-berilmadi>

⁶ Income of Kazakhstan Casinos: Analysis of Earnings of Gambling Establishments <https://sbceurasia.com/en/2024/06/05/income-of-kazakhstan-casinos-analysis-of-earnings-of-gambling-establishments>



104,3 milliard tengega (taxminan 230 million dollar) yetgan, jumladan, bukmekerlar davlatga 87 milliard teng (192,5 million dollar) soliq to‘lashgan.⁷

Biroq, Qozog‘iston tajribasi faqat ijobiy natijalar bilan cheklanmaydi. Ushbu mamlakatda ham bukmekerlik faoliyatini tartibga solish bilan bog‘liq qator muammolar mavjud bo‘lib, ular asosan noqonuniy onlayn platformalarning faoliyati, reklama cheklovlari va qimor o‘yinlariga qaramlikning ortishi bilan bog‘liqdir. Shu sababli so‘nggi yillarda davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini kuchaytirishga qaratilgan bir qator islohotlar amalga oshirildi, jumladan, reklama faoliyatiga nisbatan cheklovlar joriy etildi hamda moliyaviy operatsiyalar ustidan nazorat kuchaytirildi.⁸

Bukmekerlik faoliyatini tartibga solishda asosiy muammo iqtisodiy manfaatlar va ijtimoiy xavflar o‘rtasidagi muvozanatni topishdan iborat. Robert Uilyams va Yurgen Rehm fikrlariga ko‘ra, bukmekerlik bozori iqtisodiy foyda keltirishi bilan birga, ijtimoiy xarajatlarni ham yuzaga keltiradi va davlat siyosati aynan ushbu ikki omil o‘rtasidagi optimal muvozanatni ta‘minlashga qaratilishi lozim.⁹ Yuqoridagi olimlarning fikricha, legal tavakkalchilikka asoslangan o‘yinlar industriyasi davlat byudjetiga soliq tushumlari, yangi ish o‘rinlari va investitsiyalarni jalb etish orqali ijobiy iqtisodiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ushbu sektor ijtimoiy jihatdan salbiy oqibatlarni ham yuzaga keltiradi, jumladan, qimor o‘yinlariga qaramlik, aholining moliyaviy barqarorligiga putur yetishi, oilaviy nizolar va hatto jinoyatchilik darajasining oshishi bilan bog‘liq muammolarni keltirib chiqaradi. Mazkur yondashuvga ko‘ra, davlat siyosatining asosiy vazifasi aynan ushbu ikki omil - iqtisodiy foyda va ijtimoiy zararlar o‘rtasida optimal muvozanatni ta‘minlashdan iborat bo‘lishi lozim. Bu esa shuni anglatadiki, davlat

⁷ Unlocking the Potential of Kazakhstan’s Gambling Market <https://gcauthority.com/news/174-unlocking-the-potential-of-kazakhstan-gambling-market>

⁸ SBC Eurasia, ‘Regulatory Shifts in Eurasia’s Gambling Scene’ (2025) <https://sbceurasia.com/en/2025/01/15/4h-agency-2024-regulatory-shifts-to-eurasias-gambling-scene/>

⁹ Robert Williams and Jürgen Rehm, *The Socio-economic Impact of Gambling* (Oxford University Press 2014) 78. https://www.researchgate.net/publication/228352378_The_Social_and_Economic_Impacts_of_Gambling



bukmekerlik faoliyatini na to‘liq erkinlashtirishi, na to‘liq taqiqlashi kerak, balki uni samarali nazorat mexanizmlari orqali boshqarishi zarur. Aynan shu nuqtada litsenziyalash tizimi muhim instrument sifatida namoyon bo‘ladi, chunki u davlatga bozordagi ishtirokchilarni saralash, nazorat qilish va ijtimoiy xavflarni minimallashtirish imkonini beradi.

Shuningdek, huquqiy nazariyalardan biri bo‘lgan “public interest theory”ga ko‘ra, davlat tomonidan tartibga solish jamiyat manfaatlarini himoya qilish uchun zarur bo‘lib, ayniqsa yuqori xavfli sohalarda bu aralashuv muhim ahamiyat kasb etadi.¹⁰ Shu nuqtai nazardan, bukmekerlik faoliyatini litsenziyalash nafaqat iqtisodiy faoliyatni tartibga solish vositasi, balki ijtimoiy xavflarni kamaytirish mexanizmi sifatida ham qaraladi. Ayniqsa, yuqori darajadagi xavf va salbiy tashqi effektlarga ega bo‘lgan sohalarda, xususan, tavakkalchilikka asoslangan o‘yinlar va bukmekerlik sohasida davlat aralashuvi muqarrar hisoblanadi. Chunki bozor mexanizmlari o‘z-o‘zidan ijtimoiy adolat va iste’molchilar himoyasini ta’minlay olmaydi, iste’molchilar esa ko‘pincha to‘liq axborotga ega bo‘lmasdan, qaror qabul qilishda irratsional xatti-harakatlarga yo‘l qo‘yadi va o‘z manfaatlarini to‘liq himoya qila olmaydi.¹¹ Shu nuqtai nazardan, sport bukmekerlik faoliyatini litsenziyalash nafaqat iqtisodiy faoliyatni tartibga solish vositasi, balki ijtimoiy siyosat instrumenti sifatida ham qaraladi. Litsenziyalash orqali davlat iste’molchilarni himoya qilish, voyaga yetmaganlarni ushbu faoliyatdan cheklash, moliyaviy shaffoflikni ta’minlash va noqonuniy pul oqimlarini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bundan tashqari, litsenziyalangan operatorlar zimmasiga “know your customer” (KYC) talablari, pul yuvishga qarshi choralar (AML) va mas’uliyatli o‘yin (“responsible gambling”) tamoyillarini joriy etish kabi qat’iy majburiyatlar yuklanadi, bu esa ijtimoiy zararlarni kamaytirishda muhim rol o‘ynaydi.¹² Mas’uliyatli o‘yin (“responsible gambling”) konsepsiyasi zamonaviy tartibga solish

¹⁰ Richard A Posner, *Economic Analysis of Law* (8th edn, Wolters Kluwer 2011) 603.

¹¹ Cass R Sunstein, ‘Behavioral Analysis of Law’ (1997) 64 *University of Chicago Law Review* 1175, 1180.

¹² Financial Action Task Force, *International Standards on Combating Money Laundering* (FATF 2012) 27–30



tizimlarining ajralmas qismiga aylangan bo‘lib, u qimor o‘yinlariga qaramlikni kamaytirishga qaratilgan mexanizmlarni o‘z ichiga oladi. Bunga o‘yinchilarning o‘zini o‘zi cheklash imkoniyati (self-exclusion), depozit limitlari va o‘yin vaqtini nazorat qilish tizimlari kiradi.¹³

Biroq, davlat tomonidan tartibga solish har doim ham ijobiy natijalarga olib kelavermaydi. George Stigler tomonidan ilgari surilgan “regulatory capture” nazariyasi bu borada muhim tanqidiy yondashuvni taqdim etadi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, tartibga soluvchi organlar vaqt o‘tishi bilan o‘z faoliyatida jamoatchilik manfaatlaridan ko‘ra tartibga solinayotgan industriya manfaatlariga xizmat qilib qolishi mumkin.¹⁴ “Regulatory capture” turli shakllarda namoyon bo‘ladi. Birinchidan, yirik bozordagi ishtirokchilar siyosiy yoki iqtisodiy ta’sir orqali regulyator qarorlariga ta’sir o‘tkazishi mumkin. Ikkinchidan, litsenziyalash talablari ataylab murakkablashtirilishi orqali kichik va yangi operatorlar uchun kirish to‘siqlari yaratiladi. Uchinchidan, “revolving door” fenomeni ya’ni davlat organlari va xususiy sektor o‘rtasida kadrlar almashinuvi regulyatorning mustaqilligini zaiflashtirishi mumkin. Natijada, tartibga solish tizimi o‘zining asl maqsadi iste’molchilarni himoya qilish va bozorni sog‘lom rivojlantirish funksiyasidan chetga chiqib, monopolistik tuzilmalarning shakllanishiga xizmat qilishi mumkin.¹⁵ Bu esa raqobatni kamaytiradi, xizmatlar sifati va innovatsiyalarni pasaytiradi hamda iste’molchilar uchun salbiy oqibatlarga olib keladi. Bundan tashqari, haddan tashqari qat’iy tartibga solish noqonuniy bukmekerlik bozorining kengayishiga sabab bo‘lishi mumkin. Agar litsenziyalangan operatorlar uchun talablar juda yuqori bo‘lsa yoki soliq yuklamasi ortiqcha bo‘lsa, iste’molchilar arzonroq va kamroq cheklovlarga ega bo‘lgan noqonuniy platformalarga o‘tib ketadi.¹⁶ Bu esa davlat nazoratini zaiflashtiradi va jinoyatchilik xavfini oshiradi.

¹³ Mark Griffiths, ‘Responsible Gambling and Harm Minimisation’ (2012) *Journal of Gambling Studies* 223, 228.

¹⁴ George J Stigler, ‘The Theory of Economic Regulation’ (1971) 2 *Bell Journal of Economics* 3, 5.

¹⁵ OECD, *Preventing Policy Capture* (OECD Publishing 2017) 45.

¹⁶ European Commission, *Online Gambling in the Internal Market* (2017) 14–16.



Shu sababli zamonaviy huquqiy yondashuvlarda muvozanatli model (balanced regulation) konsepsiyasi ustuvor hisoblanadi. Ushbu yondashuv davlat nazorati va bozor erkinligi o'rtasidagi optimal muvozanatni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, tartibga solish choralarining proporsionalligi, regulyator organlarning mustaqilligi, shaffof litsenziyalash tizimi va samarali nazorat mexanizmlarini o'z ichiga oladi.¹⁷

Demak xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, muvaffaqiyatli tavakkalchilikka asoslangan o'yinlar va bukmekerlik faoliyati regulyatsiyasi uch asosiy ustunga tayanadi: qat'iy litsenziyalash tizimi, kuchli iste'molchilar himoyasi mexanizmlari va samarali huquqni muhofaza qilish tizimi. Ushbu uch elementdan birortasi zaif bo'lsa, tizim umumiy samaradorligi pasayadi.

O'zbekiston sharoitida bukmekerlik faoliyatini tartibga solish jarayoni faqat iqtisodiy yoki fiskal masala emas, balki institutsional islohotlar bilan bevosita bog'liq murakkab huquqiy transformatsiya sifatida namoyon bo'ladi. Litsenziyalash tizimining samaradorligi esa nafaqat normativ-huquqiy bazaning mavjudligi, balki uni amalda ijro etish mexanizmlarining ishlashi bilan belgilanadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-68-son farmoni bilan belgilangan litsenziyalash tizimi ushbu yo'nalishdagi muhim qadam bo'lsa-da, uning amaliyotga tatbiq etilishi jarayonida ehtiyotkorlik bilan yondashilmoqda. Bu esa davlat tomonidan ijtimoiy xavflarni kamaytirish va bozorni tartibli shakllantirishga qaratilgan siyosat yuritilayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, litsenziyalash jarayonining ortiqcha cho'zilishi foydalanuvchilar noqonuniy bukmekerlik platformalaridan foydalanishiga va yashirin bozor (shadow market)ning saqlanib qolishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu bois, tartibga solish choralarini bosqichma-bosqich va muvozanatli tarzda joriy etish muhim hisoblanadi.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash lozimki, bukmekerlik zamonaviy iqtisodiyotning yuqori daromadli, biroq yuqori xavfli segmenti hisoblanadi. Sport

¹⁷ Julia Hörnle, Cross-border Gambling on the Internet (Edward Elgar 2009) 112–115.



bukmekerlik faoliyatini samarali tartibga solish faqat to'liq taqiq yoki to'liq erkinlashtirish orqali emas, balki balansli regulyatsiya orqali amalga oshirilishi mumkin.

Qiyosiy tahlil asosida ko'rib o'tilgan Qozog'iston tajribasi bukmeckerlik faoliyatini litsenziyalash va iqtisodiy liberalizatsiya qilish orqali sezilarli fiskal foyda olish mumkinligini ko'rsatadi, biroq bu model ijtimoiy xavflarni to'liq bartaraf etish murakkabligini ham ko'rsatadi. Shu bilan birga, hozirgi kunda O'zbekiston modeli ehtiyotkor yondashuvga asoslangan bo'lib, ijtimoiy himoya va institutsional tayyorgarlikni ustuvor qo'yib kelmoqda.

Umuman olganda, O'zbekiston uchun eng maqbul yo'l shunchaki, xorijiy tajribani to'liq ko'chirish emas, balki uni milliy huquqiy tizim, ijtimoiy sharoit va iqtisodiy imkoniyatlarga moslashtirilgan holda implementatsiya qilishdir. Xususan, litsenziyalash jarayonini tezlashtirish va shaffoflashtirish, regulyator organ mustaqilligini ta'minlash va iste'molchilarni himoya qiluvchi mexanizmlarni bir vaqtda joriy etish ustuvor vazifalar sifatida belgilanishi lozim. Samarali tartibga solish qat'iy litsenziyalash, kuchli iste'molchilar himoyasi va mas'uliyatli o'yin (responsible gambling) mexanizmlari asosida qurilishi lozim. Ushbu elementlarning birorta zaif bo'lsa, butun tizimning samaradorligi pasayadi. Shunday qilib, sport bukmeckerlik faoliyatini litsenziyalash faqat iqtisodiy islohot emas, balki huquqiy davlat institutlarining rivojlanishi, raqamli iqtisodiyotga moslashuv va ijtimoiy xavflarni boshqarishning kompleks mexanizmi sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-apreldagi "Lotereyalar va tavakkalchilikka asoslangan o'yinlarni tashkil etish va o'tkazishni tartibga



solishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-68-son Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.04.2024-y., 06/24/68/0302-son.

Ilmiy adabiyotlar

2. Posner R.A. Economic Analysis of Law. 8th edn. — Wolters Kluwer, 2011. — 603 b.
3. Williams R., Rehm J. The Social and Economic Impacts of Gambling. — Oxford University Press, 2014. — 78 b.
4. Hörnle J. Cross-border Gambling on the Internet. — Edward Elgar, 2009. — 112–115 b.

Ilmiy maqolalar

5. Stigler G.J. The Theory of Economic Regulation // Bell Journal of Economics. — 1971. — № 2. — B. 3–5.
6. Sunstein C.R. Behavioral Analysis of Law // University of Chicago Law Review. — 1997. — Vol. 64. — B. 1175–1180.
7. Griffiths M. Responsible Gambling and Harm Minimisation // Journal of Gambling Studies. — 2012. — B. 223–228.

Xalqaro tashkilotlar hujjatlari

8. Financial Action Task Force (FATF). International Standards on Combating Money Laundering. — FATF, 2012. — B. 27–30.
9. OECD. Preventing Policy Capture. — OECD Publishing, 2017. — 45 b.
10. European Commission. Online Gambling in the Internal Market. — 2017. — B. 14–16.



Internet manbalari

11. Gazeta.uz. O‘zbekistonda bukmekerlikni qonuniylashtirish masalasi
<https://www.gazeta.uz/uz/2024/04/27/ilma/>
12. UzNews.uz. O‘zbekistonda hozircha onlayn qimor o‘yinlari va bukmekerlik faoliyati uchun litsenziyalar berilmagan — ILMA.
<https://uznews.uz/ru/news/108303>
13. Daryo.uz. O‘zbekistonda bukmekerlikni tashkil etish bo‘yicha birorta ham litsenziya berilmadi. <https://daryo.uz/2026/03/20/ozbekistonda-bukmekerlikni-tashkil-etish-boyicha-birorta-ham-litsenziya-berilmadi>
14. SBC Eurasia. Income of Kazakhstan Casinos: Analysis of Earnings of Gambling Establishments. <https://sbceurasia.com/en/2024/06/05/income-of-kazakhstan-casinos-analysis-of-earnings-of-gambling-establishments>
15. GC Authority. Unlocking the Potential of Kazakhstan's Gambling Market. <https://gcauthority.com/news/174-unlocking-the-potential-of-kazakhstans-gambling-market>
16. SBC Eurasia. Regulatory Shifts in Eurasia's Gambling Scene. <https://sbceurasia.com/en/2025/01/15/4h-agency-2024-regulatory-shifts-to-eurasias-gambling-scene/>